



XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDA HUDUDIY INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY MASALALARI

Amonov Akram Mirzayevich

Toshkent moliya instituti

Nigmatova Munisa Ulugbek qizi

Toshkent moliya instituti magistranti

Annotatsiya: *Maqolada xorijiy investitsiyalarni jalb etishda hududiy investitsiya siyosati va uni takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar o'rganilgan. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda hududiy investitsiya siyosati va uni takomillashtirishga doir mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari o'rganilgan. Jahon amaliyotida iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllari o'rganilgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlar tarkibi va mamlakatlar bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar statistik ma'lumotlar asosida o'rganilgan. Davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmlari, tarkibiy tuzilish o'rganilgan. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb etishda hududiy investitsiya siyosati va uni takomillashtirishga doir xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *investitsiya, investitsiya siyosati, xorijiy investitsiya, investitsiya, investitsiya faoliyati, strategiya, taktika.*

TERRITORIAL INVESTMENT POLICY AND MAIN ISSUES FOR IMPROVING FOREIGN INVESTMENT

Amonov Akram Mirzayevich


Tashkent institute of finance

Nigmatova Munisa Ulugbek kizi

Master of Tashkent institute of finance

Annotation: *The article examines the regional investment policy in attracting foreign investment and the processes associated with its improvement. The research work of local and foreign scientists on regional investment policy and its improvement in attracting foreign investment is studied. In world practice, the forms of attracting foreign investment in the economy have been studied. The structure of foreign investment and loans by type of economic activity and foreign direct investment by country were studied on the basis of statistical data. The mechanisms and structure of public investment policy have been studied. In addition, conclusions and recommendations on regional investment policy and its improvement in attracting foreign investment were developed.*

Keywords: *investment, investment policy, foreign investment, investment, investment activity, strategy, tactics.*






1. Kirish.

Jahonda turli mintaqalar iqtisodiyotini rivojlanishida investitsiyalarga bo‘lgan talab va taklif o‘rtasidagi nomutanosiblik, investitsiyalar oqimining taraqqiy etgan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga yo‘nalishi tendensiyalariga ega bo‘lib bormoqda. Natijada rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning ulushi oshib bormoqda. UNCTAD Investment Trends Monitor[1] bergan ma‘lumotlariga ko‘ra “jahon miqyosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning ulushi 2020 yilda pasayish tendensiyasiga ega bo‘lib, 2019 yildagi 1,5 trillion dollardan (42 foizga) 859 milliard dollargacha kamaygan”. Bunday past daraja oxirgi marta 1990-yillarda ko‘zatilgan bo‘lib. 2008-2009 yillardagi global moliyaviy inqirozdan keyingi eng past ko‘rsatkich hisoblanadi. 2021 yilda esa global iqtisodiyotni tiklash bo‘yicha prognozlariga qaramay, UNCTADning xulosasiga ko‘ra COVID-19 pandemiyasi evolyusiyasi bo‘yicha noaniqlik tufayli xorijiy investitsiyalar oqimlari past bo‘lib qolishi taxmin qilinmoqda[2]. O‘z navbatida, investitsiyalar samaradorligini oshirish bilan bog‘liq ko‘plab muammolar mavjudligi investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarishni takomillashtirish zaruratini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib qolmoqda.

Xalqaro amaliyotda kompaniyalar tomonidan investitsion qarorlar qabul qilishda investitsion samaradorlikni baholash, baholash mexanizmini to‘g‘ri tanlay olish, investitsion loyihalarni boshqarishga alohida e‘tibor berilgan. Kompaniyalar kapital tuzilmasini optimal shakllantirish, kapital bahosini minimallashtirish hamda moliyaviy barqarorlikni belgilangan normativlar asosida ta‘minlash masalalarini kompleks tarzda o‘rganilmaganligi va bu borada chuqur ilmiy-tadqiqotlar olib borishni taqoza etmoqda. Shuningdek, investitsion faoliyat samaradorligini baholash mazkur yo‘nalishda strategik boshqaruv jarayonini tashkil etish, investitsion risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish dolzarb masalalar hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida «...iqtisodiy o‘sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko‘paytirish orqali erishiladi» ... «SHu bilan birga, investitsiya siyosatini yuritishda davlat ishtirokini pasaytirib, xususi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar ulushini oshirish kerak»[3], deb ta‘kidlanishi masalaga yanada oydinlik kiritadi. Chunki iqtisodiy o‘sishga investitsiyalar orqali erishish hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushini oshirishda mamlakat va uning hududlarida investitsion muhit jozibadorligini yanada yaxshilash hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu esa, o‘z navbatida, xorijiy investitsiyalarni jalb etishda hududiy investitsiya siyosati va uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishi zarurligini ko‘rsatadi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda hududiy investitsiya siyosati va uni takomillashtirishga doir ko‘plab tadqiqotlar olib





borilgan.

O'z navbatida, investitsiyalar chetdan jalb qilinganda xorijiy investitsiyalar nomini oladi. Xorijiy investitsiyalarning mazmun-mohiyati hamon turli iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinayotganini ta'kidlab o'tmoq lozim. Buni quyida keltirilganlar to'liq tasdiqlaydi:

Binobarin, N.R.Qo'zieva tomonidan kelgusida foyda olish maqsadida kapitalni eksport qiluvchi xorijiy davlatlar, yuridik va jismoniy shaxslarning kapitalni qabul qiluvchi mamlakatlarga turli ko'rinishdagi boyliklar (ko'char, ko'chmas mol-mulk, intellektual boyliklar va boshqalar) va ulardan olingan daromadlar (foйда, foizlar, dividendlar, litsenziya va komission mukofotlar, royalti, texnik ta'minot va boshqa mukofotlar)ni qo'yilishiga xorijiy investitsiyalar deyiladi[4].

D.G.G'ozibekov tomonidan Chet el investitsiyalari bir iqtisodiyot sub'ekti kapitalini o'zga iqtisodiyotga muayyan muddatga bog'lash bo'lib, ichki investitsiyalardan risklar kengligi bilan farqlangan holda, huquqiy sharoitlarning, investitsiya muhitining o'zgarishi bilan tavsiflanadi va natijada mamlakatlar va mintaqalar bo'ylab kapital ko'chishi yuz beradi»[5].

Q.B.Xoshimov tomonidan «Chet el investitsiyalari – chet el mulkdorlari tomonidan ma'lum kapitalni bir iqtisodiyotdan mutloq boshqa mamlakat iqtisodiyotining qonun bilan ta'qiqlanmagan turli tarmoqlariga aniq va noaniq risklarni hisobga olgan holda, o'z manfaatiga erishish, nisbatan yuqori darajada samara olish maqsadida muayyan muddatga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir»[6].

Xorijiy investitsiyalarga o'ziga xos ta'rif qonunchilikda ham mavjud. Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonunida ularga quyidagicha ta'rif berilgan: «chet el investitsiyalari – chet ellik investor tomonidan ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar»[7].

S.Maxmudovning fikricha, investitsiya siyosati – davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishidagi doimiy maqsadli faoliyatlarining muhim bir qismi hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekistonning faol investitsiya siyosatining muhim jihatlaridan biri investitsiyalarning moliyalashtirish manbalarida markazlashtirilgan kapital qo'yilmalarni salmog'ini kamaytirib, moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etishni takomillashtirilib borilayotganligi muhimdir[8].

Rossiyalik iqtisodchi olimlar G.P.Podshivalenko, N.V.Kisevalarning fikrlariga kura, Investitsiya siyosati-investitsiya hajmi va tarkibini o'zgartirishga qaratilgan hamda uni iqtisodiyot tarmoq va sohalariga samarali joylashtirishga yo'naltirilgan tadbirlar majmuidir[9].

Bizning nazarimizda, yuqorida bayon qilinganlarga asoslangan holda xorijiy investitsiyalarning mazmun-mohiyatini ifodalovchi quyidagicha ta'rif berish o'rinni:





sub'ektlar tomonidan nisbatan yuqori darajada foyda olish maqsadida bir mamlakat hududidan mutloq boshqa mamlakat hududiga muayyan muddatga joylashtiriladigan turli ko'rinishdagi boylklarga xorijiy investitsiyalar deyiladi.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda hududiy investitsiya siyosati va uni takomillashtirish asosiy masalalari tahlili bo'yicha dunyo olimlari va iqtisodchilari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarni o'rganish, ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish, sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.


4. Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jahon mamlakatlari tajribasi ko'rsatishicha, mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur masala, birinchi navbatda, mamlakatning investitsion jozibadorligiga, xorijiy investorlarga yaratilgan shart-sharoitlarga va mamlakatda olib borilayotgan investitsiya siyosatiga borib taqaladi. O'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning faol jalb qilinishi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish va aholi farovonligini ta'minlash, ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va uni intensiv rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, mineral xom ashyo va qishloq xo'jaligi resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha yuqori texnologik ishlab chiqarish, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Bunday imkoniyat va uni erishishga qaratilgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarning samaradorligini ta'minlash ularning qay darajada va qanday shakllarda jalb qilinishiga ham bevosita bog'liqdir.


Milliy iqtisodiyot sohalariga tashqi va ichki investitsion resurslar oqimini faollashtirish barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan xorijiy investitsiyalarning keng ko'lamda jalb qilinishi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda birlamchi ahamiyat kasb etadi, buning nechog'lik muhimligi borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti «xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to'la namoyon etish choralari ko'rishimiz kerak» [10] deb ta'kidlagan edilar.

Shunga ko'ra, iqtisodiyotni jadal rivojlantirish ko'p tomonlama va keng miqyosdagi investitsiyalarni talab etadi. Demak, investitsiyalar har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi va uning taraqqiyotini ta'minlovchi kuch bo'lib, barcha imkoniyatlardan oqilona foydalanib, milliy iqtisodiyotga jalb etiladigan investitsiyalar hajmini va sifatini oshirish taqozo etiladi.

Turli mezonlar bo'yicha xorijiy investitsiyalarning tasniflanishi ularni jalb qilish masalasiga ham bevosita daxldordir. Buguni kunda jahon amaliyotida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning turli shakllari mavjud bo'lib, eng ommabop shakllari sifatida (1-rasm): xorijiy sarmoya ishtirokida korxonalar tashkil qilish; mutlaq



boshqa davlatga tegishli sarmoya asosida korxonalar ochish; erkin yoki maxsus iqtisodiy zonalar va offshor zonalarni tashkil qilish va ular faoliyatini rivojlantirish; mamlakat rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarni olish; konsorsium, konsessiya va alyanslar; xalqaro lizingni rivojlantirish; er va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqini olish; barcha turdagi mulkiy va nomulkiy huquqlarini olish; xalqaro franchayzingni rivojlantirish; davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish, maxsus investitsiya dasturlarini joriy qilish va hokazo.



1-rasm. Jahon amaliyotida iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllari[11]

Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda ham asosiy e'tiborni ularning real investitsiyalar shaklida ko'proq kirib kelishga qaratish lozim. Chunki investitsiyalarning real ko'rinishda ko'proq kirib kelishi mamlakatda fan-texnika taraqqiyotining, texnologik o'zgarishlarning jadallashuviga imkon beradi.

Aytish lozimki, bevosita xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilish ilg'or ishlab chiqarishni zamonaviy, yangi uskuna, texnologiya bilan jihozlash, nou-xau va malakaviy ishchi kuchiga ega bo'lish, ish tajribasini o'rganish, yangi ish joylarini tashkil qilish, mahalliy bozorni sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish, eksport salohiyatini oshirish, milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi imkoniyatlarini beradi.

Shuning uchun ham mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish va xorijiy investorlarni qo'llab quvvatlash bir qator islohatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Istiqlol yillarida O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali zamonaviy texnologiyalar asosida tovarlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarni tashkil etish bilan bevosita bog'liq bo'lgan uzoq muddatli kapital qo'yilmalar uchun barcha qulay shart-sharoitlar yaratildi. Shu bilan birgalikda, iqtisodiy islohotlar davrida investitsion va tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari takomillashib bormoqda. «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida», «Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida», «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»,







«To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» kabi huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ular O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishga zamin yaratdi. Jumladan, 2019 yil 25 dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni hamda, respublikamizda xorijiy investorlar va ular ishtirokidagi korxonalar faoliyatini tartibga soluvchi qonuniy-me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishi fikrimizning dalilidir.


Xorijiy investorlar uchun O'zbekistonda turli shakllarda investitsiyalarni amalga oshirish imkoniyati yaratilgan. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida» gi Qonunining 34-moddasiga asosan chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tashkil etishlari hamda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan o'zlariga berilgan barcha huquqlar, kafolatlar va imtiyozlardan foydalanishlari mumkin[12]. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, 2018 yil 1 sentyabrdan xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar ustav fondidagi xorijiy investitsiyalar ulushining eng kam miqdori 30 foizdan 15 foizga kamaytirildi hamda shu turdagi korxonalar ustav fondining eng kam miqdori 600 mln. so'mdan 400 mln. so'mgacha kamaytirildi[13]. Bunday holat mamlakatda qo'shma korxonalar sonining ko'payishiga imkon yaratdi. Biroq, ushbu davrgacha xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar ustav fondidagi xorijiy investitsiyalar ulushining eng kam miqdori 30 foiz qilib belgilanganligi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko'lamiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

2021- yilning yanvar-dekabrda 104 457,3 mlrd. so'm (dollar ekvivalentida 9,8 mlrd. AQSH doll.) yoki 2020- yilga nisbatan 105,2 foiz asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi. Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 42,7 foiz ni tashkil etdi. Xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 39 879,4 mlrd. so'mni va mos ravishda xorijiy kreditlar 64 577,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 87 139,1 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 17 318,2 mlrd. so'm xorijiy kreditlar o'zlashtirildi.





2-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlar tarkibi, % da [14]




2-rasm. Investor mamlakatlar bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, jamiga nisbatan foizda [14]

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi ya'ni 61,9 foiz i to'rtta investor mamlakat hissasiga to'g'ri keladi: Rossiya – 24,2 foiz, Xitoy – 20,4 foiz, Germaniya – 8,1 foiz va Turkiya – 9,2 foizni tashkil etgan.

Investitsion siyosat birinchi navbatda investitsion muhitning sub'ektiv tashkil etuvchilariga ta'sir etadi. Investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan investitsion siyosat yo'nalishlari ichida quyidagilarni alohida ko'rsatish lozim:

- mamlakat va chet el investorlari uchun qulay mexanizm yaratish;
- kapital mablag'lar samaradorligini oshirish;
- investitsion faoliyat bilan shug'ullanishdagi risk darajasini minimallashtirish.

Investitsion siyosat oxir-oqibatda mamalakatni barqaror ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi hamda aholi turmush darjasini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Darhaqiqat, xorijiy investorning keyingi qiziqishlari qo'yilgan kapitalning qoplanish





muddati, investitsiyalarning kapitallashuv jarayonlari, tomonlar ulushlari va foydaning bo'linishi, shuningdek, mamlakatdagi bozor iqtisodiyoti munosabatlarining kechishi va bunga xalqaro tashkilotlarning munosabatlari masalalariga e'tibor qaratiladi.

Davlat investitsiya siyosati quyidagi tarkibiy tuzilishga ega bo'lib, o'z ichiga quyidagi strategik va taktik tadbirlarni qamrab oladi:

- davlatning muhim iqtisodiy ko'rsatkichlarini prognozlashtirish;
- iqtisodiyot tarmoqlarida moliyaviy siyosatni belgilash;
- davlat va investor o'rtasidagi munosabatlarni me'yoriy tartibga solish;
- investitsion tovarlarni xarib qilish bo'icha davlat byurtmalarini shakllantirish.

Davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmlari uyidagilarni o'zida aks ettiradi:

1. Muayyan maqsadga erishishga qaratilgan yo'l xaritasi (investitsiya faoliyatida yechimini kutayotgan boshqaruv vazifalari). Investitsiya siyosatini amalga oshirish muddatlarini, mas'ullarini, moliyalashtirish manbalari va usullarini o'zida aks ettiruvchi konsepsiyalar ishlab chiqish.

2. Investitsiya siyosatini amalga oshiruvchi muayyan hokimiyat organlarini belgilab olish. Shuningdek, investitsiya siyosatini amalga oshiruvchi mas'ul organlarning o'zaro munosabat tartiblari va vakolatlarini belgilash.

3. Investitsiya siyosati vazifalarini amalga oshirish uchun muljallangan davlat resurslari hajmini belgilash. Investitsiyalarni jalb qilish uchun qo'lay investitsion mo'hitni shakllantirish (investitsion bozorni ta'minlash uchun infrastrukturani yaratish).

4. Investitsiya siyosatini amalga oshirish yuzasidan nazoratlar o'tkazish.


5. Davlat va mahalliy byudjetdan foydalanish qoidalarini o'zida aks ettiruvchi zarur bo'lgan normativ-huquqiy bazani yaratish

5. Xulosa va takliflar.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha xalqaro tajribalarga tayangan holda jadallashtirilgan investitsiya siyosatini yuritgan holda mamlakatimiz investitsion jozibadorlikni oshirish hamda xorijiy investorlarni mamlakatimizdagi faoliyatini qo'llab-quvvatlash kerak. Shuningdek, mamlakatimizda biznes yuritish uchun yaratigan shart-sharoitlar va huquqiy kafolatlar to'g'risida xorijiy investorlarni keng xabardor qilish maqsadida xalqaro anjumanlar va investitsion forumlar tashkil etishni jadallashtirish zarur. Ushbu maqsadda videoroliklar tayyorlash, maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish ishlarini yanada jadallashtirish, ushbu zonalarga yirik strategik investorlarni jalb qilish; O'zbekistonning xalqaro reyting va indeksdagi o'rnini mustahkamlash talab etiladi.

O'zbekistonning investitsion siyosati quyidagilarga yo'naltirilgan bo'lishi kerak:

- respublika qonunchiligi kamchiliklarini bartaraf etishga;
- davlatning investitsion siyosati noizchilligini tekislashga;





- ortiqcha ishchi kuchiga ega bo'lgan hududlarga investitsiyalarning ko'plab to'planishiga qulay shart-sharoit yaratadigan investitsion muhitni shakllantirishga;
- ijtimoiy masalalarni hal etishga;
- hududlardagi infratuzilmani rivojlantirishga.

6. ADABIYOTLAR/LITERATURA/REFERENCE:

7.

1. UNCTAD United Nations Conference on Trade and Development – BMTning Savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi.
2. Global foreign direct investment fell by 42% in 2020, outlook remains weak, UNCTAD, 24.01.2021
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 29.12.2020. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
4. Qo'zиеva N.R. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rivojlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. Iqt. fan. dok. ilm. dar. olish uchun yoz. diss. avtoref. – T.: BMA, 2008, 11 bet.
5. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. Monografiya. – T.: Moliya, 2003. – B. 45.
6. Xoshimov Q.B. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni soliqqa tortish va uni takomillashtirish yo'llari. i.f.n. ilm. dar. ol. uch. yoz. diss. avtoref. – T.: BMA, 2004. – B. 7.
7. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabrda gi «Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida» gi O'RQ-598-son Qonuni, 3-modda.
8. Maxmudov S. B. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning noan'anaviy usullarini takomillashtirish. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. №5, oktyabr, 2020 yil. 2 bet
9. Г.П.Подшиваленко, Н.В.Киселева Инвестиционная деятельность. - М.: Кнорус, 2005. - 432 с.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrda gi «2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida» gi Parlamentga Murojaatnomasidan <https://kun.uz/uz/news/2018/12/28/prezident-murojaatnomasi-toliq-matn>
11. Rasm tadqiqot natijalariga ko'ra muallif tomonidan shakllantirilgan. Uni shakllantirishda bir qancha xorijlik olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllari tahlil qilingan holda umumlashtirilgan.
12. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabr «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi 598-sonli O'RQ.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 avgustda gi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5495-sonli Farmoni.Stat.uz sayti malumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.





14. Stat.uz sayti malumotlari.

